

## IJTIMOYIY TARMOQ SAHIFASI GAROV NARSASI BO'LA OLADIMI?

**Baxtiyorova Farangiz Ulug'bek qizi**

*Toshkent davlat yuridik universiteti 2-bosqich talabasi*

[farangizbaxtiyrov@gmail.com](mailto:farangizbaxtiyrov@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Chel el fuqarosi bo'lgan blogger va o'zbekiston fuqarosining kelishuvi asosida garov shartnomasi tuzmoqchi bo'lsa, ijtimoiy tarmoq sahifasi garov narsasi bo'la oladimi? Bu vaziyatda O'zbekiston hududida vaqtincha yashash uchun kelgan chel el fuqarosi fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchisi bo'ladimi? Bu holatlar huquqiy munosabatga kirishuvchilar o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarishi mumkinmi? Ushbu maqolada garov tushunchasi va garov narsasi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Garov, Fuqarolik kodeksi, Garov narsasi, Garov bahosi, Intellektual mulk, Ijtimoiy tarmoq sahifalarining huquqiy qiymati.*

**Аннотация:** *Если блогер, являющийся гражданином Чел Эла и гражданином Узбекистана, хочет заключить договор залога на основании договора, может ли страница в социальной сети быть залогом? Станет ли в этой ситуации иностранный гражданин, временно въехавший на территорию Узбекистана, участником гражданско-правовых отношений? Могут ли эти ситуации вызвать конфликты между вступающими в правоотношения? В данной статье рассматривается понятие залога и что такое залог.*

**Ключевые слова:** *Залог, Гражданский кодекс, Предмет залога, Залоговая стоимость, Интеллектуальная собственность, Юридическая ценность страниц в социальных сетях.*

**Abstract:** *If a blogger who is a citizen of Chel El and a citizen of Uzbekistan wants to conclude a pledge agreement based on the agreement, can the social network page be a pledge? In this situation, will a foreign citizen who came to live temporarily in the territory of Uzbekistan become a participant in civil-legal relations? Can these situations cause conflicts between those entering into a legal relationship? This article discusses the concept of collateral and what collateral is.*

**Key words:** *Pledge, Civil Code, Pledge item, Pledge value, Intellectual property, Legal value of social network pages.*

### **(Kirish qism)**

Dastlab, fuqarolik – huquqiy munosabati ta'rifiga to'xtalib o'tsak, bu – fuqarolik huquqining turli subyektlar o'rtasida vujudga keladigan va fuqarolik huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatga aytiladi. Bu munosabatlarga ishtirokchilar xususiyatlari mavjud bo'lib bular:

1. Subyektlar muayyan mulkiy mustaqillikka ega bo'lishi shart.

2. Fuqarolik – munosabatlarida ishtirok etuvchi shaxslar teng huquqli shaxslar hisoblanadi.

3. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda odatda da'vo qo'zg'atish orqali sudlar tomonidan himoya qilinadi.<sup>144</sup>

Ushbu fuqarolik-huquqiy munosabatlari subyektlariga – davlat, fuqarolar, yuridik shaxslar kiradi. Ulardan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 16-moddasida Fuqaro (jismoniy shaxs) tushunchasiga quyidagicha ta'rif berildi. **“Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi”<sup>145</sup>**. Shuningdek, Fuqarolik kodeksi 2-moddasining 2-3-qismlarida ham “Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilari bo'ladilar. Agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, fuqarolik qonunchiligida belgilab qo'yilgan qoidalar **chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda chet ellik yuridik shaxslar ishtirokidagi munosabatlarga qo'llaniladi**. Demak, keltirilgan vaziyatda ishtirok etayotgan chet el fuqarosini fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti hisoblashimiz mumkin. Bunga quyidagilarni asos sifatida keltiramiz.

Dastlab, chet el fuqarosi ham o'zbekiston fuqarosi ham mulkiy mustaqil, ya'ni muomala layoqatiga ega, hech qanday boshqa shaxslar tomonidan mulkiy boshqarilishi bo'lmagan shaxs hisoblanadi.

Shuningdek, ular o'rtasidagi munosabat tenglik tamoyiliga asoslangan. Bir tomon ikkinchi tomonga hech qanaqasiga bo'ysunuv munosabatida emas. Masalan, agarda hokim va fuqaro o'rtasida huquqiy munosabat kelib chiqsa, vaziyat fuqaro foydasiga, ammo hokimlik o'rnatgan tartib-taomillarga ko'ra hal bo'ladi, bir tomon ikkinchi tomonga shart qo'ya olmaydi. Shaxslar shartnoma asosida bir-biriga huquq va majburiyatlar yuklaydi.

(Muhokama va tahlillar)

Fuqarolik huquqida garov va uning ahamiyati masalasiga to'xtalamiz. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 264-moddasida ko'rsatilganidek, bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi. Garov tufayli garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha kreditor (garovga oluvchi) qarzdor tomonidan bu majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo'lgan shaxs (garovga qo'yuvchi) ning boshqa kreditorlariga nisbatan o'z talabini imtiyozli qanoatlantirilishiga haqli bo'ladi.

V. Topildiyev fikriga ko'ra, **“ Garovning mohiyati shundaki, majburiyat qarzdor tomonidan ijro etilmaganida, kreditor o'zining talabini garovga qo'yilgan mulk hisobidan birinchi navbatda qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kreditorning talablari**

<sup>144</sup> Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.

<sup>145</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2022-y., 03/22/801/0998-son. <https://lex.uz/docs/-111189>

***qondirilgandan so'nggina garovga qo'yilgan mulkni sotishdan hosil qilingan summadan qolganini boshqa kreditorlarning talablarini qondirish uchun sarflanishi mumkin***<sup>146</sup>.

**Bizningcha**, garov har doim muhim bo'lib kelgan majburiyatning bajarilishini ta'minlovchi vositadir, negaki shunday vaziyatlar bo'ladiki, sotib olinishi kerak bo'lgan ashyo uchun mablag' mavjud bo'lmaydi yoki yetarli bo'lmaydi. Ushbu holatda qarzdorning majburiyatlarni shartnomada belgilangan talablar bo'yicha ado etishining asosi va kreditorning ishonch bilan ashyoni topshirishiga olib keladi. Ahamiyatlisi shundaki, qiymati yuqori bo'lgan ko'chmas mulk olishda aholining kam daromadli qismiga garov shartnomasi asosida bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini beradi. Fuqarolik kodeksi 265-moddasiga ko'ra, ***“Garov zakalat, ipoteka, shuningdek huquqlar garovi tarzida amal qilishi mumkin. Garovga qo'yiladigan mulk garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o'tkazilganda garov zakalat deb hisoblanadi. Ko'chmas mulkni garovga qo'yish ipoteka hisoblanadi”***. Ta'kidlanganidek, garovning uch xil turi mavjud.

- Ko'char mulkni garovga qo'yish – zakalat.
- Ko'chmas mulk garovi – ipoteka.
- Huquqlar garovi.

Ularning farqli jihatlari – garovga qo'yiladigan mol-mulk garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o'tkazilganda, topshirilganda garov zakalat deb hisoblanadi. (odatda ko'char mulk).

Bino, inshoot, ko'p xonadonli uylardagi xonalar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari, shuningdek turar joylar ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga, qonunda ko'chmas mulk jumlasiga kiritilgan boshqa mol-mulk ipoteka narsasi bo'lishi mumkin<sup>147</sup>.

Keyingi huquqlar garovida esa foydalanish, egalik qilish va mulkiy huquqlar garov narsasi bo'lishi mumkin. Masalan: qimmatli qog'ozlar, yer uchastkasidan doimiy foydalanishga bo'lgan huquq va hokazo. Garov shartnomasida garovga qo'yiladigan mol-mulk garovga oluvchiga o'tkazilgan bo'lsa, uni asrash va saqlash kabi majburiyatlarni yuklaydi. Garovning har bir turi amaliyotda tez-tez uchrab turadi. **Fikrimizcha**, garov mavjudligi uchun ham oldi-sotdi jarayonlarida turli huquqbuzarliklar bo'lmaydi, ya'ni va'da asosida emas, qarzdorning mol-mulki asosida oldi-sotdi jarayoni borganligi uchun tomonlarning ishonchi va majburiyatlarning belgilangan tartibda amalga oshishini ta'minlaydi.

***Agarda chet el fuqaro o'z shaxsiy ijtimoiy sahifasini garovga qo'ymoqchi bo'lsa, unga qarov narsasi sifatida qarash mumkinmi? O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 267-moddasida***, “Har qanday **mol-mulk**, shu jumladan **ashyolar** va **mulkiy huquqlar (talablar)** garov narsasi bo'lishi mumkin”. Qarzdorning mavjud majburiyatlarini ta'minlash uchun belgilangan fuqarolik huquqi obyekti **garov narsasi** bo'la oladi. Har

<sup>146</sup> Fuqarolik huquqi: [o'quv qo'llanma]. umumiy qism / R.Dj. Ruziyev, V.R. Topildiyev; mas'ul muharrir B.B. Samarxo'jayev. — T.: Cho'Mpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. — 624 b.

<sup>147</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006, 40-сон, 393-модда.

qanday **mol-mulk** garov narsasi bo'lishi mumkin. Shuningdek, ashyolar va mulkiy huquqlar ham. Masalan, agar bank uy qurilishiga kredit bersa, garov huquqi qurilayotgan uyga ham o'tadi. Uy qurilib bo'lgandan keyin, uning davlat ro'yxatiga olingan paytidan boshlab, u garovga qo'yilgan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Garov to'g'risida" gi qonunining 5-moddasida, "Garov to'g'risidagi shartnomada, qonun asosida vujudga keladigan garovga nisbatan esa qonunda garovga qo'yuvchi **kelgusida qo'lga kiritadigan ashyolar va mulkiy huquqlar** garovi nazarda tutilishi mumkin. Agar shartnomada yoki qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mol-mulkka nisbatan garov huquqi mol-mulkning **narsalarini va tarkibiy samarasini** ham o'z ichiga oladi.

*Undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan fuqarolarning ayrim turdagi mol-mulkini garovga qo'yish qonunchilikda belgilangan tartibda man etilishi yoki cheklanishi mumkin.*

Yuqoridagi keltirilgan moddalarga binoan garov narsasining alohida xususiyatlarini sanab o'tamiz.

1. Har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin.
2. Fuqarolik huquqi obyekt bo'lish kerak.
3. Ma'lum moddiy qiymatga ega bo'lishi.
4. Undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulk.
5. Fuqarolik muomilasi cheklanmagan yoki fuqarolik muomilasidan chiqarilmagan bo'lishi kerak.

Bizningcha, internet sahifasidan foydalanish huquqi garov narsasi bo'la olmaydi. Fikrimizni quyidagicha asoslantirishga harakat qilamiz.

Fuqarolik huquqi **obyektlari moddiy va nomoddiy ne'matlarga** bo'linadi. Ushbu vaziyatda garov narsasi sifatida keltirilgan internet sahifasidan foydalanish huquqini **shaxsiy nomulkiy huquq** sifatida ko'rish mumkin. Fuqarolik Kodeksining 99-moddasida "shaxsning hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmat, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro'si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, **nomga bo'lgan huquqi, tasvirga bo'lgan huquqi, mualliflik huquqi**, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda tug'ulishidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo'lgan boshqa nomoddiy ne'matlar tortib olinmaydi va **o'zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi**". Bu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 13-moddasida ham quyidagicha belgilangan, "**inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi**"<sup>148</sup>. Demak, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, shaxsning internet sahifasi egasi **nomiga ochilishi**, shuningdek chet el fuqarosi bloggerning Instagram sahifasida joylagan rasmlar uning shaxsiy nomulkiy huquqlari hisoblanadi. Ya'ni ushbu sahifada **shaxsga doir ma'lumotlar** mavjud bo'ladi. Shunday ekan modda oxirida ta'kidlanganidek internet

<sup>148</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son. <https://lex.uz/docs/-20596#-38913>

sahifasiga bo'lgan huquq uning shaxsiy nomulkiy huquqi hisoblanib tortib olinmaydi va **o'zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi.**

Shuningdek, chet el fuqarosi bo'lgan N ning shaxsiy sahifasi moddiy qiymatga ega bo'lmasligi mumkin, chunki uning shaxsiy tasvirlari va boshqa video va xabarlari faqat o'zi bilan bog'liqligi sabab shaxsiy nomulkiydir. Shu o'rinda "tanganing ikkinchi tomoni ham mavjudligini" hisobga olsak, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda post yozish, turli kontentlar yaratish uchun xalqaro va davlatimiz amaliyotida mualliflik huquqi berilishi mumkin, agarda ular mutlaqo yangicha, hech qanday o'xshashliklarsiz, muallifning intellektual salohiyati natijasida, boshqa hech kimga ma'lum bo'lmagan tarzda paydo bo'lgan bo'lsa. Shu bilan birga instagram sahifasi agarda u o'z sahifasida **reklama va virtual biznes** bilan shug'ullangan bo'lganida, unda turar joyga teng qiymat bo'lishi mumkin. **Va ushbu qiymat O'zbekiston Respublikasi mulkni baholash milliy standarti "Intellektual mulk obyektlarini baholash" to'g'risidagi qonunga muvofiq, intellektual mulk va nomoddiy aktivlar tegishli tartibda baholovchi tashkilot tomonidan baholanadi.** Yuqorida ta'kidlanganidek, agarda qarzdor majburiyatni bajara olmay qolsa, uning mulkidan majburiyatga teng miqdorda qism ajratib olinishi kerak. Garov narsasining qiymati ham shunga mutanosib bo'lishi darkor.

Notarius garov shartnomasini tasdiqlamaydi, bunga sabab qilib yuqorida keltirilgan Fuqarolik kodeksi 99- moddasida ta'kidlangan garov narsasining shaxsiy nomulkiy huquq ekanligi va unda garovdagi majburiyatni ta'minlash qobiliyatiga ega qiymatning yo'qligi sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi "Garov to'g'risida"gi qonuni 10-moddasiga binoan garov shartnomasi tasdiqlanishi uchun garov mohiyati, garov narsasi va uning **bahosi** kiritilishi kerak. Garov bilan ta'minlanadigan majburiyat garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan qoplanishi mumkin bo'lgan majburiyatning **eng ko'p summasini** ko'rsatish yo'li bilan identifikatsiya qilinishi mumkin.<sup>149</sup> Garov bilan ta'minlanadigan majburiyatning qiymati turar joy bilan bog'liqligi sabab yuqori bo'lishi tabiiy, shaxsiy instagram sahifasi qiymati, agarda majburiyat bajarilmagan taqdirda undiruvni garov narsasiga qaratishni ilojisiz qilib qo'yadi. Shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlar mavjud bo'lganligi tufayli o'zga shaxsga berilmaydi.

(Xulosa va natijalar)

**Xulosa qilib aytganda,** fuqaro va chet el fuqarosi o'rtasida kelib chiqqan garov shartnomasi tuzish bilan bog'liq munosabatlarda garov narsasining garov shartnomasi talablariga mos emasligi holati kuzatilmoqda. Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlar joylanadigan instagram sahifasidan foyalanish huquqining garov narsasi sifatida garovga oluvchiga o'tkazilishi bilan bog'liq muammoli vaziyat kelib chiqqan. Ushbu ijtimoiy tarmoq sahifasida shaxsiy nom shaxsiy tasvirlar saqlanishi bois, bir shaxsdan boshqa shaxsga

<sup>149</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 08.11.2022-y., 03/22/801/0998-son.  
<https://lex.uz/docs/-59914>

foydalanish huquqining o'tishini nojoiz deb bilamiz. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, agarda xuddi shunday vaziyat katta qiymatga ega kompaniyalar asosan reklama bilan shug'ullanadigan, birgalikda yaratilgan ijtimoiy tarmoq sahifasi bo'lganida uning qiymati baholovchi tashkilot tomonidan aniqlanishi mumkin edi. Afsuslanarli jihati, bugungi kundan-kunga zamonaviylashib borayotgan turli sohalar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarga oid munosabatlarni tartibga soluvchi **aniq norma** va **qoidalarning** ishlab chiqilmaganligidir. Bizningcha, bu sohadagi **huquqiy bo'shliqlarni** bartaraf etish orqali ko'plab nizoli vaziyatlarning oldi olingan bo'lar edi.

#### FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2022-y., 03/22/801/0998-son. <https://lex.uz/docs/-111189>
3. Fuqarolik huquqi: [o'quv qo'llanma]. umumiy qism / R.Dj. Ruziyev, V.R. Topildiyev; mas'ul muharrir B.B. Samarxo'jayev. — T.: ChoMpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. — 624 b.
4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006, 40-сон, 393-модда.
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 08.11.2022-y., 03/22/801/0998-son. <https://lex.uz/docs/-59914>
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son. <https://lex.uz/docs/-20596#-38913>